

## **PARRANDALARDA UCHRAYDIGAN NYUKASL KASALLIGI VA UNI OLDINI OLISH CHORALARI**

**K. Mahmudova**

Assistenti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Xonodon va tomorqalarda parrandachilik hamda chorvachilik texnologiyasi" kafedrasи

**A. Abduraximov**

Talaba, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Xonodon va tomorqalarda parrandachilik hamda chorvachilik texnologiyasi" kafedrasи

### **Annotatsiya**

Maqlada ayrim turdagи parrandalarda uchraydigan yuqumli nyukasl kasalligi va unga qarshi kurashish usullari, oldini olish profilaktikalari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Dezinfektsiya, Nyukasl

### **Kirish**

Parrandalarda uchraydigan ko'plab kasalliklar odamlarga yuqishi, ularni zaharlashi mumkin. Oqibatda ko'plab insosnlar barvaqt hayotdan ko'z yumishiga sababchi bo'ladi. Parrandalarda uchraydigan Nyukasl kasalligi ham xavfli va tez tarqaluvchi kasallik bo'lib, odamlarda ham kasallik keltirib chiqaradi. Odam uchun jiddiy xavf tug'dirmasa ham, parrandalarning 90% dan ko'prog'ini nobud bo'lishiga sabab bo'ladi.

### **Asosiy qism**

Nyukasl kasalligi (soxta o'lat) - parrandalarning yuqumli kontagioz kasalligi bo'lib, nafas olish, ovqat hazm qilish a'zolari va markaziy nerv tizimning kasallanishi bilan xarakterlanadi.

Kasallik qo'zg'atuvchisi RNK li paramiksovirdi oilasiga mansub virus hisoblanadi.

Virus fizikaviy va kimyoviy ta'sirlarga chidamli. Virus muzlatilgan tovuq go'shtida 6 oy, - 2000 Cda 1 yildan ziyod faol saqlanadi.

Virus 65-75°C qaynatilganda -30 daqiqada, 18-210°C 50 kunda faolsizlanadi.

2-5% karbol kislotalar, formalin, 3% li o'yuvchi natriy bir necha daqiqada faolsizlantiradi.

Go'ngni biotermik zararsizlantirganda virus 20 kundan keyin faolsizlanadi.

Kasallikka tovuq, kurka, sesarka, tustovuq, tovos turdagи parrandalar moyil. Virusga sezgirlik qushlarning turiga, zotiga bog'liq. Yosh kurkalar sezgirroq. Faqat jo'jalar kasallangan holatlar, zero ular bilan kontakda bo'lgan tovuqlar kasallanmagani yozilgan. Kasallikni qo'zg'atuvchi manba bo'lib, kasal va kasaldan tuzalgan virus tashuvchilar (2-4 oy) hisoblanadi. Virus barcha sekret, ekskret va tuxum bilan kasal parrandalardan ajraladi. Virus kasallikning yashirin davrida, parranda zararlangandan 24 soat so'ng ajraladi. Virusni tarqatuvchi omil bo'lib, kasal parranda, tuxum, pat, par, majburiy so'yilgan go'sht, tushima, ozuqa, suv, transport xizmat qiladi. Virus bilan zararlangan tuxum inkubatsiya qilinsa embrionda septitsemiya chaqiradi va uni o'ldiradi. O'lgan embrion qizargan, shishgan boshi va oyoqlarida qon quylishlar kuzatiladi. Kasal parrandalar turgan binodan ventilator orqali chiqqan virus shamol bilan 3-5 km ga ketadi. Tabiiy sharoitda parrandalarga virus asosan nafas olish a'zolari, ovqat hazm qilish va shilliq pardalari orqali organizmga kiradi. Kasallik ko'proq yoz-kuz oylarida kuzatiladi. Kasallanish 100%, o'lim darajasi esa 60-90% bo'ladi.

Kasallik belgilari: Kasallikning yashirin davri 2-15 kun davom etadi. U parrandaning yoshiga, chidamligiga, virusning miqdoriga, virulentligiga bog'liq. Kasallik o'tkir, yarim o'tkir va surunkali, tipik va notipik shakllarda kechadi. Kasallik tipik kechganda patlari hurpaygan, tuxum berish keskin pasayadi, mayus, boshini tashlab, ko'zini yumib oyoqlarda turadi, ishtaha bo'lmaydi. Shilliq pardalar qizarib shishadi, yarim ochiq tumshug'i orasidan cho'ziluvchan shilliq suyuqlik oqadi, yarim ochiq tumshug'i orqali nafas oladi.

Nafas olishda xirillash, uning va pulsning tezlashishi, isitmaning 43 -440 C gacha ko'tarilishi aniqlanadi.

40-70% parrandalarda kasallik paytida jig'ildonni kengayishi, og'zidan sassiq hidli suyuqlik oqishi, diareya, axlatining suyuq kelishi, unda qon, o't va shilliq moddalar bo'lishi kuzatiladi.

Kasal parrandalar hiqildoqda yig'ilgan ekssudatlarni chiqarish uchun aksa uradi, nerv tizimining jarohatlanishi natijasida bo'yni qiyshayadi, qanolari va dumi osiladi, oyoqlari falajlanadi, ataksiya kuzatiladi.

Atipik kechsa har xil belgilar kuzatilmaydi. Bu holat ko'proq yosh jo'jalarda kuzatiladi. Jo'jalar bo'ynining qiyshayishi, oyoqlarining falajlanishi, tirishish kuzatiladi.

Nerv tizimini jarohatlanishi asosan kurkalarda bo'ladi. Kasallik asosan yengil kechadi. Bu holat agar kasallik tabiiy kuchsizlangan virus shtammlari bilan chaqirilsa, parrandachilik xo'jaliklarida har xil immunitetga ega parrandalar mavjud bo'lsa yo antibiotiklar ko'p ishlatsa ro'y berishi mumkin.

Patologoanatomik o'zgarishlar: Kasallik o'tish shakliga, qaysi a'zolarni kasallanishiga bog'liqdir. Kasallik o'tkir kechsa - septitsemiyaga xos belgilar kuzatiladi. Bunda bezli va go'shtli oshqozon o'rtasida, ingichka ichaklarda, to'g'ri ichakda no'qtali qon quyilishlar kuzatiladi.

Ko'r ichak asosida 100%, to'g'ri ichakning oldingi qismida -98,2%, bezli va go'shtli oshqozon o'rtasida -60% holatlarda qon quyilishlar aniqlanadi. Epikard va tuxumdonda ham qon quyilishlar kuzatilishi mumkin.

Surunkali kechganda o'laksada kaxeksiya, kloaka atrofi patlari axlat bilan ifloslangan bo'ladi. Ichaklarda difteritik yaralar, qon quyilishlar kuzatiladi. Kasallik og'ir kechishi natijasida nekrotik gepatit, fibrinli peritonit, aerotsistit, ovariosalpingit kuzatiladi.

Tashxis qo'yish: Klinik belgilar, epizootologik ma'lumotlar, patologoanatomik o'zgarishlarga asoslanib tashxis qo'yiladi. Bu tashxis *dastlabki tashxis* hisoblanadi.

Epizootologik ma'lumotlar yig'ish:

Yaqin kunlarda sotilgan yoki sotib olingen parrandalar, tuxumlar soni, parrandaxonalar dezinfektsiya qilinganligi, oxirgi marta qachon parrandalar go'shtga so'yilgan, parranda xo'jaligining qo'shni parranda xo'jaligiga yaqinligi shu bilan bir qatorda parranda xo'jaligiga qushlarni kirish imkoniyati, xo'jalikka transportda, begona kishilarning kirganligi, o'choq atrofidagi mavjud parrandalar o'rganiladi.

Kasallangan parrandalar ahvoli, soni, o'liklar soni, tarqalish tezligi, parranda xo'jalikdagi va atrofdagi parrandalarning emlanganligi tekshiriladi.

Laboratoriya tekshiruvlari yakuniy diagnoz uchun asos bo'ladi. Bioproba-2-4 oylik jo'ja mushagiga 0,5-1 ml suspenziya yuboriladi. 3-5 kundan keyin jo'jalar kasallanadi va o'ladi.

Ajratma diagnoz: Kasallikni septik shaklini grippdan, pasterellezdan, yuqumli laringo traxeit (YULT) va boshqa respirator kasalliklardan farqlash zarur.

Davolash –kasal parrandalar davolanmaydi, uni tarqalmasligi uchun yo'qotiladi.

Immunitet – tuzalgan tovuqlarda immunitet bo'ladi. Maxsus profilaktika uchun La-Sota, Bor-74 shtamlardan tayyorlangan virus vaktsinalar qo'llaniladi. Suyultirilgan vaktsina 1 ml hajmda yuboriladi, 14 kunda immunitet hosil bo'ladi va 6 oy saqlanadi.

Nosog'lom parranda xo'jaligidagi jo'jalar 20-25, 45-60, 140-150 kunligida B1 vaktsina, keyin har 6 oyda yoki La-Sota vaktsina jo'jalarning 10-15, 35-40, 120-140 kunligida, keyin har 6 oyda emlanadi. 14-21 kunda immunitet hosil bo'ladi va u 6 oy saqlanadi.

Oldini olish tadbirlari: Virusni parranda xo'jaligiga kiritmasligi uchun inkubatsion tuxum, sinantrop qushlar, ishlovchilar, inventar, ozuqa va tushamalar nazorat etilishi zarur. Parrandani yoshlari bo'yicha joylashtirish, sanatsiya talablari bajarilishiga erishishdir. Parranda xo'jaliklarida parranda saqlanmaydigan bino tozalanishi, 3 marta dezinfektsiya qilinishi talab etiladi. Dezinfektsiya-kimyoviy preparatlar va fizik vositalar yordamida turli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar. Kimyoviy dezinfektsiya preparatlari ichida eng ko'p tarqalganlari - kaustik soda, formalin, xloramin, karbolov kislotasi, so'ndirilmagan ohak, sirka kislotasi; fizik vositalardan ultrabinafsha nuri hisoblanadi. Sog'lom (inkub.tuxum beruvchi) xo'jalikda transport va taralarni muntazam dezinfektsiya qilish talab etiladi. Barcha taralar issiq 3%li kaustik soda, 40%li formalin bilan aerozol holda 15-20 ml/m<sup>3</sup> hisobida dezinfektsiya qilish talab etiladi. Parranda xo'jaligiga boshqa hayvonlarni (it, mushuk) yurishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

### **Xulosa**

Qarshi kurash tadbirlari:

- Kasal parrandalar yo'qotiladi, kasallikka gumon qilingan shartli sog'lar go'shtga so'yiladi va qaynatiladi.
- Xavfli tovuqxonalarda sog'lom parrandalar emlanadi.
- Parrandalar yopiq binoda saqlanadi, axlati kuydiriladi.
- Parrandalar, ularning mahsulotlari sotilmaydi, olinmaydi.
- Fermaga daxlsiz kishilar (oila a'zosi yoki og'ayin bo'lsa ham), avtotransport kiritilmaydi.
- Past baholi narsalar kuydiriladi, qolganlari 1,5% uyuvchi natriy, kreolin, formaldegid bilan dezinfektsiya qilinadi.
- Ko'rgazmalar o'tkazishga ruhsat berilmaydi.
- Parrandalar turgan binolar tozalanadi, axlati to'planadi va muntazam dezinfektsiya qilinadi.

O'lgan parrandalar darhol kuydiriladi.

- Sog'lom parrandalar vaktsina bilan emlanadi.
- Yovvoyi qushlarni fermaga kelishiga yo'l qo'yilmaydi
- Dezinfektsiya uchun issiq (70-80°) 3%li uyuvchi natriy (ekspozitsiya -3 s), 1% li formaldegid, 3% li faol xlorli ohak, 1%li uksus kislotasi aerozol 15-20 ml/m<sup>3</sup> hisobida qo'llaniladi.
- Fermaga aloqador kishilarni maxsus kiyim-kechak (xalat, kombenzon, rezina qo'lqop, chepchik, baxil, rezin etik, himoya ko'z oynak, respirator) bilan ta'minlash. Majburiy so'yilgan parrandalarning pat, parlari 3%li formaldegid bilan 30 daqiqa dezinfektsiya qilinadi.
- Xo'jalikdan kasal parranda yo'qotilgandan 30 kun keyin, yakuniy dezinfektsiya qilingandan so'ng karantin olinadi.

Parrandaning kasallikka chidamlilagini oshirish uchun uni keng, yorug', quruq binoda asrash, pichanzorlarda yayratib turish, ratsionga vitaminli va mineral moddali ozuqalar kiritish kerak. Parrandaxonalar, parranda yayratiladigan joy va ferma asbob-uskunalarini hamisha toza tutish, ularni kamida bir yilda ikki marta dezinfektsiya qilib turish nafaqat nyukasl balki boshqa ko'plab yuqumli kasalliklardan parrandalarni himoya qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R. Qurbonov "Parrandachilik sirlari" Toshkent-2013
2. R.Ro'ziyev "Parranda boqish sirlari" Toshkent-2017